



TRANSMOTIVATION IN THE NOVELS “KING-ERRANT” AND “RAIDERS FROM NORTH”

Mohida Rustamjon qizi Qodirova

PhD student

*Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan*

nazarovamohida@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-8172-9777>

<https://doi.org/10.36078/1767726151>

Abstract. The life and creative legacy of Zahiriddin Muhammad Babur – king and poet, and founder of a great empire in the sixteenth century across the territories of Movarounnahr, Afghanistan, and India – have been extensively studied not only by Uzbek scholars but also by Indian, English, Japanese, Russian, German, and French researchers. On the basis of his historical-memoir work “Baburnama”, numerous scholarly and literary works have been produced. While artistic novels created in Uzbek literature, such as “Starry nights” and “Baburiy-nama”, have been comprehensively examined by national scholars, works in English literature depicting the life of Babur Mirza have not been sufficiently introduced to the Uzbek readership. Accordingly, the present article aims to analyze the novels “King-errant” and “Raiders from the North”, created in English literature on the basis of Babur’s historical-memoir work “Baburnama”, with particular focus on the phenomenon of transmotation manifested therein. In the course of the study, the transfer of motifs from “Baburnama” into the structure of these two novels – accompanied by a transformation of their original purpose, namely, the alteration of the primary cause of specific events in the new literary context – has been examined through illustrative examples. Within this framework, the processes of demotivation and remotivation, as well as their functions and significance in the creation of historical-fictional novels, have been identified and elucidated. The findings of the research demonstrate that several instances of transmotation undergoing similar transformations in both novels have been determined and comparatively analyzed. The theoretical foundation of the study is grounded in Gérard Genette’s work “Palimpsests: Literature in the Second Degree”. Furthermore, relying on the data presented in “Baburnama,” the source bases of the novels “King-errant” and “Raiders from the North” have been established. The present research may serve as a theoretical resource for the fields of literary and Baburi studies.

Keywords: transmotation; Gerard Genette; historical novel; motif; demotivation; remotivation.

“JAHONGASHTA QIROL” VA “SHIMOLDAN KELGAN FOTIHLAR” ROMANLARIDA TRANSMOTIVATSIYA

Mohida Rustamjon qizi Qodirova

Doktorant (PhD)
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. XVI asrda Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindiston hududida yashab buyuk imperiyaga asos solgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi nafaqat o‘zbek, balki hind, ingliz, yapon, rus, nemis, fransuz olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilmoqda, uning “Boburnoma” asari asosida ilmiy va badiiy asarlar yaratilmoqda. O‘zbek adabiyotida yaratilgan “Yulduzli tunlar” va “Boburiynoma” kabi romanlar olimlarimiz tomonidan keng qamrovda o‘rganib kelinayotgan bo‘lsa-da, ingliz adabiyotida Bobur mirzo hayotini tasvirlovchi asarlar o‘zbek kitobxoniga yetarlicha tanish emas. Shu bois ushbu maqolada muallif Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” tarixiy-memuar asari asosida ingliz adabiyotida yaratilgan “Jahongashta qirol” hamda “Shimoldan kelgan fohihlar” romanlari va ulardagi transmotivatsiya hodisasini tahlil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Tadqiqot davomida “Boburnoma” tarkibidagi motivlarning ushbu ikki asar tarkibiga maqsadi o‘zgargan holda ko‘chib o‘tishi, ya’ni muayyan voqea-hodisaning asl sababi ikkinchi bir asarga o‘zgarishga uchrab ko‘chishi masalasi o‘rganilgan. Ushbu jarayonda demotivatsiya va remotivatsiya jarayonlari, ularning tarixiy-badiiy roman yaratishdagi o‘rni hamda vazifalari aniqlangan. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, yuqoridagi har ikki romanda ham birdek o‘zgarishga uchragan bir necha transmotivatsiyalar aniqlandi va qiyosan tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotga Gerard Genetning “Palimpsest: Adabiyot yuqori darajada” kitobi nazariy asos qilib olindi. Shuningdek, “Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda “Jahongashta qirol” va “Shimoldan kelgan fohihlar” romanlarining manbaviy asoslari belgilandi. Ushbu tadqiqot adabiyotshunoslik hamda boburshunoslik yo‘nalishlari uchun nazariy manba vazifasini bajarishi mumkin.

Kalit so‘zlar: transmotivatsiya; Gerard Genette; tarixiy roman; motiv; demotivatsiya; remotivatsiya.

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” memuar asari tarixiy, etnografik, ijtimoiy, siyosiy hamda biografik jihatdan muhim ahamiyatga ega asar hisoblanadi. Unda temuriylarning so‘nggi vakillaridan biri — Bobur mirzo hayoti va Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solinishi tarixi batafsil yoritilgan. Asar tilining jozibadorligi, undagi ma’lumotlar, tarixiy voqealar izchilligi hamda muallifning xolisona yondashuvi sababli hozirgacha nafaqat o‘zbek, balki jahon tarixshunoslari, adabiyotshunoslari va tilshunoslari uchun muhim manba vazifasini bajarib

kelmoqda. “Boburnoma” matni asosida ko‘plab ilmiy hamda badiiy asarlar yaratilgan va yaratilmoqda. Jumladan, o‘zbek adabiyotida P. Qodirov, X. Sulton kabi yozuvchilar Bobur hayotini yorituvchi badiiy asarlar yaratishgan bo‘lsa, ingliz adabiyotida Flora Annie Stil, Aleks Rutserford, Harold Lamb kabi yozuvchilar “Boburnoma”dan ilhomlanib, inglizzabon kitobxonlar uchun romanlar yozishgan. Ushbu romanlarda Bobur shaxsiyatining turli qirralari ochib berilgan bo‘lib, ularda “Boburnoma”da ochiq qoldirilgan, izoh berilmagan ayrim jihatlarga mualliflarning o‘ziga xos yondashuvlari aks etgan. “Boburnoma” tarixiy-memuar asar va unda tasvirlangan barcha voqealar tarixiy faktlardir. Unga asoslanib yozilgan asarlar esa bir necha jihatlariga ko‘ra “Boburnoma”dan farq qiladi. Birinchidan, “Boburnoma” tarixiy voqealarni “aslida qanday bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha aks ettirgan. “Jahongashta qirol” — “King-errant” (Flora Annie Stil) va “Shimoldan kelgan fothlar” — “Raiders from North” (Aleks Rutserford) asarlarida to‘qima, xayoliy obrazlar, voqealar tasviri uchraydi (Mohim begim, billur kosa, Xitoy sayohati va b.). Shuning uchun ularda tasvirlangan har bir hodisani aynan haqiqat deb qabul qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. F. A. Stil o‘z asariga yozgan so‘zboshida yozganidek, “ushbu badiiy asar tarix emas, balki Boburning o‘z qaydnomasidan ilhomlanib yozilgan hayot hikoyasidir” [Steel 1928: V]. Ikkinchidan, “Boburnoma”da, asosan, qanday voqea sodir bo‘lgani lakonik (qisqava lo‘nda) tarzda tasvirlangan, yuqoridagi romanlarda esa Boburning ichki kechinmalari, voqealarning ichki tafsilotlari hamda sabablari, shuningdek, “Boburnoma”dagi bo‘shliqlar ham qisman to‘ldirilgan. Uchinchidan, “Boburnoma”dagi shaxslar va voqealar tasviri real tarixiy asosga ega bo‘lib, ular boshqa tarixiy asarlarda ham uchraydi. Romanlar tarkibidagi qahramonlar va voqealarning ayrimlari esa to‘qima yoki o‘zgartirilgan (Mas., Boysung‘ur, Qambar Ali, Boburiy, billur kosa va b.). To‘rtinchidan, “Boburnoma”ning asosiy maqsadi — bo‘lib o‘tgan voqealarning “rosti va har ishning haqiqiy bayoni”ni [Boburnoma 2023: 238] tahrir qilish bo‘lsa, Stil va Rutserford o‘quvchida estetik tarjiba hosil qilishni, Bobur shaxsini kitobxonga yaqinlashtirishni maqsad qilganlar. Xulosa qilib aytish mumkinki, “Boburnoma” uying asosi va devorlari bo‘lsa, u asosida yozilgan romanlar uying bezaklaridir. Bu uyni qanday bezatish esa mualliflarning fantaziyasiga bog‘liq.

Flora Annie Stil 1847–1929-yillari yashab ijod qilgan britaniyalik adiba. Uning “Jahongashta qirol” (“King-errant”) romani ingliz yozuvchilari tomonidan Bobur haqida yaratilgan birinchi badiiy asar hisoblanadi. Roman 1912-yili birinchi marta, 1928-yili ikkinchi marta nashr etilgan. Bundan tashqari, hozirgacha bir necha marta turli nashriyotlar tomonidan

ham chop etilgan. Avvalgi nashrlar muallifning vafotidan oldin nashr etilgani bilan o'ziga xosdir.

Ikkinchi asar muallifi Aleks Rutserford ikki yozuvchining umumiy taxallusi bo'lib, Diana Preston va uning turmush o'rtog'i Maykl Prestonga taalluqli. Ularning "Shimoldan kelgan fohishlar" ("Raiders from North") romani boburiylar tarixiga bag'ishlangan olti kitobning birinchi qismi hisoblanadi va birinchi marta 2009-yili Buyuk Britaniya hamda AQSHda chop etilgan. Ikkala roman ham Bobur hayotini yoritishda o'ziga xos vazifaga ega. Jumladan, F. A. Stil asari Boburning ichki dunyosini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa, A. Rutserford asari Boburning hukmdor va oila boshlig'i sifatidagi o'rnini ochib beradi. Ushbu ikki roman qahramonlar va voqealar tasviri, muallif yondashuvi nuqtayi nazaridan qisman farqlanadi. Bu esa mualliflarning Bobur shaxsi va hayoti tarixiga qanchalik yaqin sharoitda yashaganligi bilan asoslanishi mumkin. F. A. Stil umrining 22 yilini Hindistonda o'tkazib, Hindiston hayoti, urf-odatlar va tarixi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, Aleks Rutserford boburiylar tarixi bilan Hindiston, O'rta Osiyo va shu oraliqdagi hududlarga qilgan sayohatlari orqali tanishgan. Shu sababli, F. A. Stilning voqealar rivojidadagi bo'shliqlarga bergan yechimlari Aleks Rutserfordnikiga qaraganda sharqona an'analarga yaqinroq va Bobur ichki dunyosini to'laroq ochib beradi. Tadqiqot "Boburnoma" hamda u asosida yaratilgan yuqoridagi ikki romandagi ayrim motivlar, ularning ko'chishi, shuningdek, transmotivatsiya jarayonini tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygani sababli asosiy fikrlar motiv, motivning ko'chishi va transmotivatsiya terminlari xususida yuritiladi.

Rene Vellek hamda Ostin Varrenning "Adabiyot nazariyasi" ("Theory of Literature") kitobida keltirilishicha, motiv tushunchasi dastlab fin folklorshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular ertaklar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari syujetini tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilganlar [Wellek & Warren 1949: 225]. Ingliz adabiyotshunoslari tomonidan "syujetning tarkibiy qismlaridan biri" sifatida qaralgan "motiv" tushunchasi Boris Tomashevskiy tomonidan "badiiy asarning ajralmaydigan qismining mavzusi" tarzida talqin qilingan bo'lib, olimning fikriga ko'ra, har bir gapning o'ziga xos motivi mavjud bo'ladi [Tomashevskiy 1925: 137]. Tomashevskiyning yozishicha, motiv eng kichik birlik bo'lib, asarning mavzuviy materialini eng mayda bo'laklarga ajratish orqali aniqlanadi. Shuningdek, olim motivni ikki turga ajratadi: bog'langan (asardan olib tashlab bo'lmaydigan) va erkin (asar syujetiga bevosita ta'sir qilmaydigan) motivlar [Tomashevskiy 1925: 138]. Buni "Boburnoma" misolida keltiradigan bo'lsak, Boburning Farg'ona taxtiga chiqishi, Samarqand uchun olib borilgan urushlar, Kobulni egallashi,

Hindiston fathi kabi motivlar o'zgarimas motivlar hisoblanadi va ular tarixiy faktlardir. Erkin motivlar sifatida esa tabiat va hayvonot tasviri, shoir va olimlar haqidagi fikrlar hamda ma'lum bir shaxslar, joylar va narsalar haqidagi Boburning shaxsiy qarashlari olinishi mumkin. Stil hamda Rutserford o'z romanlarni yozish davomida "Boburnoma"dagi motivlarni o'z asarlariga ham ko'chirib o'tkazganlar. Jumladan, yoshlik, sevgi, taxt uchun kurash, aka-uka raqobati, do'stlik, vatandan judolik, she'riyatga bo'lgan mehr, jangovarlik, tabiat bilan oshnolik va boshqa motivlar har ikki badiiy asarda ham o'z aksini topgan. Biroq bir necha o'rinlarda mualliflar ma'lum bir motivlarning mazmunini, ularning voqealar rivojidadagi o'rnini o'zgartirgan holda olib o'tganlar. Bu jahon adabiyotshunosligida transmotivatsiya hodisasi deb yuritiladi. Transmotivatsiya atamasiga fransuz nazariyotchisi Gerard Genette o'zining "Palimpsest: Adabiyot yuqori darajada" ("Palimpsest: Literature in the second degree") asarida atroflicha to'xtalib o'tgan. Transmotivatsiya ikki tomonlama jarayon bo'lib, quyidagi formula asosida yuz beradi.

Demotivatsiya + remotivatsiya = transmotivatsiya [Genette 1997: 325].

Bunda demotivatsiya asosiy manbadagi motiv (sabab)ning olib tashlanishini anglatadi, remotivatsiya xuddi shu o'ringa yangi motiv (sabab)ning qo'yilishini anglatadi. Xuddi shu ikki jarayonning natijasi o'laroq transmotivatsiya hodisasi, bir asardagi motivning ikkinchi asarga mazmuni va maqsadi o'zgargan holda ko'chib o'tishi yuzaga keladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, transmotivatsiya, bu — qahramon harakatlarning asl sababini yangisi bilan almashtirishdir. Bu orqali muallif asl manbadagi tashqi sabablarni ichki sabablarga almashtirishi yoki ochiq qoldirilgan va izohlanmagan harakatlarga kitobxonni qoniqtiradigan asosli sabablarni keltirishi mumkin. Masalan, "Boburnoma"da Xonzoda begimning Shayboniyxon qo'liga tushishi muallif tomonidan aniq tasvirlanmagan, ya'ni o'quvchida voqea qay tarzda sodir bo'lgani haqida tushuncha hosil bo'lmaydi, Bobur "shu chiqishda Xonzoda begim Shayboniyxon qo'liga tushdi" degan ma'lumotni keltiradi, xolos. Ushbu jihat Stil va Rutserfordlarga voqeaning aniq va tushunarli bayonini (albatta, to'qima) qayta yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqot ikki davrda yashab ijod qilgan va qilayotgan ikki ingliz yozuvchilari: Flora Annie Stil hamda Aleks Rutserfordlarning Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi romanlarini tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Tadqiqot davomida asarlardagi motivlar hamda transmotivatsiya jarayoni tahlil qilingan, misollar va izohlar keltirilgan. Shuningdek, tahlillar intertekstual, qiyosiy-adabiy,

tarixiy kontekstual, narratologik, va motivlar tipologiyasi kabi tahlil metodlaridan foydalanildi. Intertekstual tahlil metodi asosida asarlardagi o'zgarishga uchragan motivlar aniqlangan bo'lsa, qiyosiy-adabiy metod orqali tarixiy-memuar asar badiiy asar — roman bilan o'zaro qiyoslandi. Taqqoslash natijasida real tarixiy fakt bilan badiiy yodashuv o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Romanlardagi yozuvchi pozitsiyasi narratologik tahlil metodi yordamida, transmotivatsiya hodisasi motivlar tipologiyasi metodi va romanlarning davr nuqtayi nazaridan qabul qilinishi hamda madaniy tafakkur tarixiy-kontekstual metodi yordamida o'rganildi. Tadqiqot obyektini “Boburnoma”, “Jahongashta qirol”, “Shimoldan kelgan fotihlar” asarlari tashkil etadi.

Natijalar

Tahlil davomida “Jahongashta qirol” va “Shimoldan kelgan fotihlar” romanlaridagi transmotivatsiyaga uchragan bir nechta o'rinlar aniqlandi. Jumladan, “Boburnoma”dagi quyidagi motivlar nomlari sanab o'tilgan ikki romanda o'zgarishga uchragan:

1. Ilk hukmronlik.
2. Samarqand taxtiga da'vogarlik.
3. Andijondan ayrilish.
4. Oysha begimga uylanish va ajralish.
5. Xonzoda begimning Shayboniyxon qo'liga tushishi.
6. Darbadarlik.
7. Mohim begimga uylanish.

Munozara

Ilk hukmronlik. “Boburnoma”da keltirilishicha, Boburning otasi Umarshayx mirzo Axsi shahrida jordan qulab vafot etgan payti Bobur Andijon shahrida bo'lgan va Shirim tag'oyi uni tog'larga olib ketishga uringan, qisman olib ketgan ham. Andijon qal'asidan jo'natilgan elchi vositasida Bobur shaharga qaytib kelgan va qonuniy tarzda taxtga chiqqan [Boburnoma 2023: 46]. Xuddi shu voqea Aleks Rutserford romanida Boburning otasi o'limiga shaxsan guvohlik, fojiani to'lig'icha o'z ko'zi bilan ko'rishi hamda his qilishi tarzida o'zgarib ko'chgan. Muallif bu orqali o'z qahramonini asarning boshidayoq hayotning zarbalariga tayyorlaydi va otasi bilan uning o'limidan oldin bo'lib o'tgan suhbat vositasida Bobur hayotining asosiy mazmunini belgilab beradi. Shuningdek, hayoti va taxti xavf ostida qolgan qahramon qo'liga qurol olib jang qiladi va dushmanlarini o'z qo'li bilan o'ldiradi. “Boburnoma”dan farqli ravishda bu asarda Andijon beklari Boburga xiyonat qilib, Shayboniyxonga mamlakatni

bermoqchi bo'lishadi. Lekin Esondavlat begim va Boburdagi qat'iyat hamda Vazirxon kabi sadoqatli do'stlar yordamida taxt saqlab qolinadi [Rutherford 2009: 14–33]. “Jahongashta qirol”da esa Bobur o'z aqli bilan Andijon qal'asidan tog'larga qochib ketmasligi kerakligi tushunib yetadi, bunga yo'l chetida o'tirgan darveshning o'z-o'ziga takrorlab o'tirgan “Har ish Allohning izni bilan bo'ladi” degan so'zlari turtki bo'ladi [Steel 1928: 8].

Samarqand taxtiga da'vogarlik. Samarqand temuriylar davlatining poytaxti hisoblangani uchun har bir temuriy hukmdor, har bir temuriy shahzoda bu shaharga egalik qilishni, “ota taxti” (Amir Temur taxti)ga o'tirishni xohlar edi. Bobur ham ana shu istak hamda amakisi Mahmud mirzoning o'limi bergan imkoniyat sababli Samarqandga yurish qiladi. Bu XV asr oxiri – XVI asr boshidagi Movarounnahr hududiga xos jihat bo'lib, mayda hukmdorlar o'rtasida hududlar uchun doimiy urushlar bo'lib turar edi. Bobur bilan bir vaqtda Samarqand taxtiga da'vogarlik qilgan shahzodalar qonunan bir xil mavqe va huquqqa ega edilar. Ushbu Samarqand taxtiga da'vogarlik motivi Flora Annie Stilda merosiylik va Chingizxon avlodiga mansublik bilan belgilanadi. Ya'ni Bobur amakivachchalari bo'lgan Mahmud mirzo o'g'illaridan turli sabablarga ko'ra ustunlik qilar edi. Birinchidan, katta o'g'il — Mas'ud mirzo Xusravshoh qo'lida o'yinchoq edi va taxtga da'vosi qat'iy emas edi. Uning yagona xohishi Samarqand a'yonlaridan birining qiziga uylanish edi. O'rtancha o'g'il — Boysung'ur mirzo, iqtidorli, dilkash, ajoyib tabiatli yigit bo'lsa-da, ona tomonidan aslzoda emas edi. Shuningdek, uning xatti-harakatlarida ham podshohlik belgilari yo'q edi. Uchinchi shahzoda — Sulton Ali mirzo, Boburdan yosh jihatidan kichkina edi. Ikkinchidan, Bobur ota tomonidan Amir Temurning, ona tomonidan Chingizxonning avlodi edi. Uning onasi — Qutlug'nigor xonim o'sha vaqtda Mo'g'uliston xoni bo'lgan Yunusxonning katta qizi deb ta'riflangan (asl tarixda Yunusxonning ikkinchi qizi). Yosh va merosiylik jihatidan ustunlik sababli Bobur Samarqand taxtiga eng munosib nomzod sifatida ko'riladi [Steel 1928: 30]. Aleks Rutserford esa bu da'voni Samarqandning so'nggi hukmdori Ahmad mirzo tomonidan Boburni merosxo'r deb tan olishi bilan asoslaydi. Ya'ni Ahmad mirzo o'limi oldidan jiyanidan Boburga o'z tansoqchilari boshlig'i bo'lgan Boysung'urni (to'qima obraz) jo'natib, undan kechirim so'raydi va Amir Temurdan qolgan uzugini jo'natib, uni taxt vorisi deb tan oladi [Rutherford 2009: 40]. Bu vaqtda Samarqandda bosh vazir hokimiyatni egallaydi va shaharni Kobul hukmdorining o'g'liga berish uchun berkitib oladi. Bu xabarni eshitgan Bobur g'azabga minadi, chunki vazirning hokimiyatni egallab olishga hech qanday huquqi yo'q edi. Samarqand taxti Boburga tegishli edi va u o'z qonuniy taxtiga egalik qilish

uchun jang qiladi. Biroq bosh vazir hokimiyatni nafaqat Boburga, balki o'lja va qizining ilinjida kelgan Qunduz shahzodasi Mahmudga ham bermay, shaharni qattiq qo'riqlaydi. Bu o'rinda Qunduz shahzodasi Mahmud obrazi "Boburnoma"da keltirilgan Mas'ud mirzoning transformatsiyaga uchragan shaklidir. "Boburnoma"da yozilishicha, shahzoda Mas'ud mirzo samarqandlik shayx Abdullo barlosning qiziga oshiq bo'ladi va uni olib, mamlakat olishlik dag'dag'asini qo'yib, Hisorga qaytib ketadi [Boburnoma 2023:69]. Asarda Qunduz shahzodasi Mahmud Samarqandga biroz talonchilik qilish va Samarqand bosh vazirining qiziga erishish maqsadida kelgani ta'kidlangan [Rutherford, 2009: 45].

Andijondan ayrilish. Mirzo Bobur Samarqand shahrini ilk bor egallaganida u yerda yuz kun hukmronlik qiladi. Sulton Ahmad Tanbal va Uzun Hasan ittifoq tuzib, ukasi Jahongir mirzoni Andijon podshohi deb e'lon qiladilar va Andijon qal'asini qamal qiladilar. Boburga ushbu voqea xabari yetib kelganida shahar hali taslim bo'lmagan, lekin yaqinlari undan tezlik bilan kelishni so'rashgan edi. Kasal holida ota shahrini himoya qilish uchun yo'lga chiqqan bo'lsa ham, Ali Do'st tag'oyi uni kasalligida ko'rgan askar so'ziga ishonib, o'lgan deb o'ylaydi va shaharni Ahmad Tanbalga topshiradi. Boburning O'ratepaga yetib kelganini eshitgan muxoliflar oilasini uning oldiga jo'natib yuborishadi [Boburnoma 2023: 82–86]. Boburning Samarqand shahrini jangsiz tashlab chiqib ketishi motivi "Jahongashta qirol" romanida tog'asi Mo'g'uliston xonining Andijonni Jahongir mirzoga berishni talab qilib jo'natgan xati bilan izohlanadi. Ushbu talabni rad etgan Bobur Andijonni mustahkamlash uchun yo'lga chiqadi va ikkala shahardan ham bir vaqtda ayriladi [Steel 1928: 70]. Shuningdek, asarda Ahmad Tanbal obrazi qatnashmaydi va buning o'rniga Jahongir mirzo obrazi oldingi qatorga chiqadi. Bundan tashqari, asarning shu qismida tarixiy faktdan o'zgachalik qayd etilgan bo'lib, muallif Boburning amakisi Sulton Mahmud mirzo va tog'asi Mahmudxon obrazlarini chalkashtirib yuborgan. Bir o'rinda Umarshayx mirzo tirikligida unga qarshi qo'shin tortgan Toshkent xoni Mahmudxon Sulton Mahmud mirzo bilan chalkashtirib qo'yilgan [Steel 1928: 10]. Ya'ni uning otasiga qarshi amakisi Sulton Mahmud mirzo qo'shin tortgan va u Toshkent hukmdori bo'lgan. Bu ma'lumot xato bo'lib, aslida, Sulton Mahmud mirzo qo'shin tortmagan va u Hisor hukmdori edi. Asarning keyingi qismlarida bu xato to'g'rilangan va Toshkent xoni sifatida Mahmudxon ko'rsatilgan. Ushbu xato tushunish tarixiy ismlarning o'xshashligi hamda tog'a va amaki so'zlari ingliz tilida bir so'z (uncle) bilan ifodalanishi bilan izohlanishi mumkin. "Shimoldan kelgan fotihlar" asarida esa Boburni Samarqanddan tezlik bilan olib chiqib ketgan sabab — oilasining xavfsizligi masalasi edi. Ya'ni Ahmad Tanbal Boburning onasi, opasi va xotinini asirlikda saqlaydi

va ularni garov sifatida ushlab turadi. Ularning hayotidan xavfsiragan Bobur Andijon shahriga dadil hujum qila olmaydi. Uning uchun hukmdorlikdan ko‘ra oilasining salomatligi muhimroq edi.

Oysha begimga uylanish va ajralish. Bobur mirzoning amakisi Sulton Ahmad mirzoning qizi Oyishasulton begimga uylanish motivi ham asarlarda o‘zgarishga uchragan bo‘lib, Aleks Rutserford unga yangicha ruh bergan. “Boburnoma”da keltirilishicha, Bobur Oyishasulton begimga besh yoshida unashtirib qo‘yiladi va mana shu unashtiruv dalolati bilan unga uylanadi. Bu nikohda qisman siyosiy maqsad ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu haqida fikr bildirilmagan va Bobur ota-onasining xohishiga binoan uylanadi. Bobur tortinchoqligi sabab Oyisha begimni yoqtira olmaydi va o‘z asarida u haqida juda kam ma’lumot bergan. Oyisha begim esa farzandi vafot etganidan so‘ng, opalarining xusumati bilan Boburdan ajrashadi. Ushbu syujet F. A. Stil tomonidan o‘zgartirilmagan, u ham Bobur kabi Oyisha begimni voqealar rivojidan tushirib qoldirgan. Lekin A. Rutserfordning “Bobur”i bu nikohdan o‘ziga siyosiy va harbiy jihatdan ittifoqchilarni topish maqsadida foydalanadi. Asarda Oyisha begim Boburdan yosh jihatidan katta bo‘lib, Zomin viloyati va minglig‘ qabilasi sardori Ibrohim Soruning qizi sifatida ta’riflangan. Bobur bu nikoh orqali Ibrohim Soruning mashhur kamonchilar qismidan Andijon viloyatini qaytarib olishda foydalanmoqchi edi. Nikoh kelishuviga ko‘ra, to‘ydan so‘ng, Ibrohimbek o‘zining kamonchilarini jo‘natishi lozim edi. Lekin Ibrohim Soru va‘dasida turmaydi va belgilangan vaqtda qo‘shinini jo‘natmaydi. Bundan tashqari, Oyisha begim ham Boburga sovuq munosabatda bo‘lib, bepisandlik qiladi. Bunga sabab qilib, Boburning taklifidan oldin o‘z qabilasidagi boshqa yigitga unashtirib qo‘yilgani va Oyisha begim uni unuta olmagan ko‘rsatiladi. Yuqoridagi jihatlar oilaning buzilishiga sabab bo‘ladi va Oyisha begim qabilasiga qaytib borib, avval unashtirilgan yigitga turmushga chiqadi. Asarda Oyisha begimga aloqador o‘rinlar mufassal yoritilgan va kitobxon uning taqdiri qanday yakunlanganidan xabardor bo‘la oladi. Shuningdek, Ibrohim Soru obrazi “Boburnoma”da ham keltirilgan bo‘lib, unda Bobur uni ishonchli va obro‘-e‘tiborli, lekin Saripul urushida halok bo‘lgan bek sifatida qayd etgan. Ushbu tarixiy shaxs Rutserford asariga transmotivatsiya hodisasi orqali olib o‘tilgan bo‘lishi mumkin, chunki Rutserforddagi Ibrohim Soruning Boburga munosabatini “Boburnoma”da keltirilgan Ibrohim Soruning dastavval Boburga qarshi chiqib, keyin taslim bo‘lgani haqidagi fakt bilan bog‘lash mumkin.

Xonzoda begimning Shayboniyxon qo‘liga tushishi. “Boburnoma”da muallif Xonzoda begimning Shayboniyxon qo‘liga tushishi haqida “...mening egachim Xonzoda begim ushbu chiqishda Shayboqxonning

qo‘liga tushdi” deydi va qo‘lga tushish sababni ochiq keltirmaydi. “Humoyunnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlarida keltirilishicha, bu Shayboniyxonning Boburning oilasi va yaqinidagilarning sog‘-omon Samarqanddan chiqib ketishlari uchun qo‘ygan talablaridan biri bo‘lgan [Gulbadanbegim 1998: 29–30; Haydar 2011: 247]. Bobur uchun opasini garovga tashlab, o‘zi omon chiqib ketishi juda og‘ir bo‘lgani va buni ochiq ayta olmagan uchun bu haqida ko‘p to‘xtalmaydi. Lekin voqealar rivojida otini juda tez yeldirib ketgani, otining ayili bo‘shab qolgani uchun otdan yiqilib, ancha muddatgacha bo‘lib o‘tgan voqealarni eslolmay qolganini ta’kidlaydi [Boburnoma 2023: 124]. F. A. Stil va A. Rutserford Boburdagi bu holatni to‘g‘ri anglashgan va asarlarida Bobur qalbidagi alam va iztiroblarni yorqin tasvirlashgan. Jumladan, F. A. Stil ushbu voqeada asosiy majburiyatni Xonzoda begimga yuklaydi. Ya’ni ukasining og‘ir ahvolini ko‘rgan Xonzoda begim Shayboniyxonga o‘zi xat jo‘natib, agar ukasini sog‘-omon chiqarib yuborsa, unga turmushga chiqishga roziligini bildirgan. Bu xatdan Bobur bexabar edi va har qanday holatda ham opasini dushmanining qo‘liga qoldirib ketishga rozi bo‘lmas edi. Buni sezgan Xonzoda begim Shayboniyxon bilan kelishib, to‘y haqidagi kelishuvni Boburdan yashirishadi. Go‘yoki Shayboniyxon Bobur opasini berishga rozi bo‘lmasa ham uni shahardan zararsiz chiqarib yuborishga rozi bo‘ladi. Aslida esa opasi tun qorong‘usida Boburga sezdirilmagan holatda uning karvonidan ajralib chiqadi va kelishilganidek Shayboniyxon oldiga boradi. Opasining qolib ketganidan xabar topganida tong otay deb qolgan va karvon qal‘adan uzoq masofadagi xavfsiz joyga yetib bo‘lgan edi. Bobur bundan qattiq iztirobga tushadi va jahl bilan ot choptirib boshi bilan yiqiladi. Bu o‘rinda muallif Boburning buvisi — Esondavlat begimning Samarqandda qolishi motivini ham ustalik bilan asoslaydi. Go‘yoki qariligi va uzoq yo‘lga bardosh berolmasligini bahona qilgan xonim, aslida, Xonzoda begimning oldida qolishni va vaziyat taqozo etsa, uni himoya qilishni maqsad qilgan edi. Muallif asarda ushbu vaziyatni yanada ochiqlash uchun oldindan belgi berib o‘tadi. Ya’ni bundan bir necha yillar oldin Xonzoda begim Bobur bilan suhbatda “uning uchun har qanday ishni qilishga roziligini” bildiradi, Bobur esa “oilasi ayollaridan o‘zining qo‘lidan kelmaydigan hech qanday ishni so‘ramasligini aytadi” [Stil 1928: 31]. Aleks Rutserford esa ochiq tarixni ifodalaydi, ya’ni Bobur opasidan Shayboniyxonga turmushga chiqishni o‘zi so‘raydi va barcha ayblovni o‘z bo‘yniga oladi. Chunki u majbur edi. Shayboniyxon bergan va’dasida turmagan, Bobur va oilasini o‘rab olib, agar opasini unga bermasa, butun oilasini va askarlariga qo‘shib, butun shaharni vayron qilishini, yangi shaharni aholining jasadlari ustiga qurishini aytib qo‘rqitadi. Bobur o‘zining va yaqinlarining joni uchun emas, balki butun shahar aholisining hayotini o‘ylab, opasidan bu ishni qilishini so‘raydi. Bu Boburdagi iztirob

juda kuchli edi, chunki u aybdorlik va sharmandalik hissi bilan yo'g'rilgan edi. Butun umri davomida onasi Qutlug'nigor xonim undan opasini qutqarishini so'rab yashaydi va shu iltijo bilan bu dunyodan ko'z yumadi. Ushbu musibat tufayli xonimning sog'lig'i yomonlashadi va qizining dardida vafot etadi.

Mohim begimga uylanish. Tarixchi olim G'ofurjon Sotimovning bergan ma'lumotiga ko'ra, Bobur mirzo Mohim begimga "...1506-yilda Hirot ziyorati paytida uylangan". Mohim begim Husayn Boyqaroning qarindoshlaridan biri bo'lib, o'z davrining yetuk olimalaridan bo'lgan [Sotimov 2003: 9]. Lekin Bobur mirzo noma'lum sabablarga ko'ra Mohim begim bilan nikoh tafsilotlarini o'z asarida keltirmaydi. Kitobxon "Boburnoma" orqali faqatgina Mohim begim Humoyun mirzoning onasi ekanligi, Humoyun mirzodan keyingi farzandlarning birortasi yashab qolmagani, shu sababli Dildor og'achaning ikki farzandi Mohim begim tarbiyasiga berilgani hamda bir-ikki o'rinda uning siyosiy o'rni haqidagi ma'lumotlarni oladi, xolos. Bu ma'lumotlar zanjiridagi bo'shliq yuqorida nomi tilga olingan ikki badiiy asar muallifiga ushbu nikohning tafsilotlari va sabablarini o'z maqsadlariga mos holda taqdim etish imkonini beradi. "Shimoldan kelgan fotihlar" romanida Mohim begim va Bobur mirzoning nikohi Boburning o'z amaldorlaridan biri bo'lgan Boysung'urga bo'lgan hurmati bilan bog'liq holda asoslanadi. Asarda keltirilishicha, Boysung'ur samarqandlik aslzodalardan bo'lib, avvaliga Boburning amakisi Sulton Ahmad mirzo tansoqchilarining boshlig'i vazifasini bajargan. Ahmad mirzo vafoti oldidan uni Boburga elchi qilib jo'natadi va Boysung'ur bu xizmati uchun Samarqand bosh vaziri tomonidan jazolanadi. Chunki u Samarqandga Ahmad mirzo o'rniga egalik qilayotgan edi. Bundan ranjigan Boysung'ur Boburga Samarqandni egallashda yordam beradi va ana shu kundan boshlab to umrining oxirigacha unga sadoqat bilan xizmat qiladi. Bobur Kobul taxtiga chiqqach, Boysung'ur oldida o'zini burchli deb hisoblaydi va uning oilasidan qiz olish orqali o'z hurmatini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Boysung'urning Samarqandda bir qizi bo'lib, u 17 yoshda edi. Samarqandda siyosiy vaziyat yaxshi bo'lmagani sabab uni Hirotga qarindoshinikiga jo'natib yuborgan edi. Boburning iltimosi bilan Mohim begim Kobulga keltiriladi va Bobur unga uylanadi. Asar davomida ular baxtli oila sifatida tasvirlangan. "Jahongashta qirol" romanida bu motiv yanada yuqori darajaga ko'tarilib, Bobur va Mohim begim munosabati Husayn Boyqaroning o'g'li G'arib mirzo va Ma'suma begim fonida berilgan. Muallif shunday chiroyli syujet zanjirini yaratganki, undagi ko'plab voqealar "Boburnoma"da aks etmagan bo'lsa-da, mantiqan o'z asosiga ega. Asarda keltirilishicha, Bobur mirzo Husayn Boyqaro qarorgohida bo'lganida Shohg'arib mirzo (asarda Mirzo G'aribbek yoki

Poverty-prince sifatida keltirilgan) bilan ko‘p suhbat quradi va undan nikoh kechasi uni ko‘rib, qo‘rqib ketgan qiz haqida eshitadi. U Mirzo G‘aribbekning ayoli bo‘lib, bir necha yil oldin uylangan, lekin mirzo o‘zining nogironligi va qo‘rqinchli ko‘rinishi sababli u qiz oldida o‘zini aybdor deb hisoblardi. Mirzoning vafotidan so‘ng, Mohimbegim umrining qolgan qismini Hirotidagi “Tul ayollar uyi”da o‘tkazayotgan edi. Oradan yillar o‘tib, Hirotga kelganida o‘sha qizni qidirib ko‘rmoqchi, agar topa olsa, unga uylanishni rejalashtiradi. Mirzo G‘aribbek Boburning qachondir Hirotga kelishini sezib, rafiqasi orqali unga xat qoldiradi va xatda u ham Boburdan Mohim begimga uylanishini iltimos qiladi. Mohim begim xatni o‘z qo‘li bilan Bobur mirzoga topshiradi va ular keyingi juma kuni yashirincha nikoh o‘qitishni reja qilishadi. Biroq Bobur mirzo bu vaqt orasida amaksining qizi Ma’suma begimni uchratib, yoqtirib qoladi. Bundan xabardor bo‘lgan Mohim begim o‘zini chetga oladi va nikoh kuni belgilangan joyga kelmaydi. Bobur mirzo qizning ismini ham, manzilini ham, hatto tashqi ko‘rinishini ham bilmagani, bu haqida boshqalardan so‘ray olmagan sababli uni qidira olmaydi. Aslida, Ma’suma begim va Bobur mirzo o‘rtasida sevgining mustahkamlanishiga Mohim begim sababchi bo‘ladi, ya’ni Ma’suma begim nomidan Bobur mirzoga she’rlar va sevgi izhoriga to‘la xatlarni saroy xizmatkori niqobi ostida o‘z qo‘li bilan olib borib beradi. Ma’suma begimga Bobur mirzoga atab she’rlar bitib beradi. Bu she’rlarni ko‘rgan Bobur “endi haqiqiy o‘zimga mos qizni topdim” deb o‘ylab sevgisi yanada mustahkamlanadi. Lekin Mohim begimning ularga g‘amxo‘rligi bu bilan tugamaydi. Oradan bir yil o‘tib, Ma’suma begim o‘zi opa-singil tutingan Mohim begimni Kobulga chaqirishni iltimos qiladi va bunga erishadi. Ma’suma begim farzandini dunyoga keltirish vaqtida vafot etadi va Boburga Mohim begimga uylanishini vasiyat qiladi. Xullas, taqdirning tuhfasini o‘laroq, Bobur mirzo Mohim begimga uylanadi. Asarda ushbu syujet orqali “Boburnoma”dagi bo‘shliq to‘ldiriladi.

Darbadarlik. “Boburnoma”da darbadarlik motivi alohida o‘rin egallaydi, chunki Bobur hayoti davomida bir necha marta taxtdan, mulkdan ayrilib, tog‘larda sarson-sargardon yurgan. O‘zi “Boburnoma”da ta’kidlaganidek, birinchi marta ota yurtidan ayrilganida ikki yilni Xo‘jandda Samarqand va Andijonni qaytarib olish maqsadida o‘tkazadi, lekin muvaffaqiyatga erisholmaydi. Ali Do‘st tag‘oyining Marg‘ilonni topshirishi orqali Andijonga qaytish imkoniga ega bo‘ladi. Ko‘plab janglardan so‘ng, raqiblarini ojiz holga keltiradi, biroq sadoqatsiz beklari sababli Ahmad Tanbal va Jahongir mirzoning sulh haqidagi taklifini qabul qilishga majbur bo‘ladi. Sulh shartlariga ko‘ra, aka-uka birlashib, Samarqandga hujum qilishlari va viloyat egallanganidan so‘ng, Andijon Jahongir mirzoga

berilishi kerak edi. Ikkinchi marta Samarqand taxtidan ayrilganida, Toshkentga boradi. Tog'alari Mahmudxon va Ahmadxonlar yordami bilan Andijonni qaytarib olishga urinadi, biroq ularning subutsizligi va qo'rqoqligi sababli maqsadiga erisha olmaydi. Shuningdek, tog'alari bilan o'tkazgan vaqti samarasiz bo'lib, nafaqat viloyat, hattoki, biror qishloqqa ham egalik qilolmaydi. Oxiri umidsiz bo'lib, Movarounnahrda bosh olib ketishga, omadini Xuroson hududidan izlashga qaror qiladi [Boburnoma 2023: 151]. Kobul atrofiga borganida Xusravshoh askarlari kelib, uning safiga qo'shiladilar. Ular bilan birga Kobulga borib, aka-uka arg'unlarni mag'lub etadi va Kobul va G'azni viloyati hamda ularga tegishli tumanlarga egalik qiladi. Darbadarlik motivi F. A. Stil asarida siyosiy fondan Boburning ichki dunyosiga, qalbiga ko'chadi. Birinchi marta el-yurtsiz qolganida vaqtini ma'nan o'sishga sarflaydi, Mirzo G'aribbek bergan billur qadahdagi dunyolarni tushunishga harakat qilib, tog'larga chiqadi. Ikkinchi safar esa, Bobur jismonan yuksaladi. Muallif uzoq hududlarga sayohat qilgani, balki bolaligida orzu qilganidek, Xitoyga borgani, u yerda cho'ldagi masjid, uning imomi va muazzini haqidagi hikoyani she'rga solgani haqida taxminlar beradi. Qahramon bu sayohatlarda toblanib, hayotning zarbalariga tayyor bo'lib qaytadi. Endi u hokimiyat ishtiyoqidagi yigitcha emas, balki keng hududlarni qamroviga ololadigan haqiqiy erkak edi. Uning birinchi marta soqol oldirishi esa o'tmishdagi barcha voqealarni ortda qoldirib, yangi hayot boshlayotganining belgisi o'laroq tasvirlangan. A. Rutserford esa bu motivga g'arbona ruh beradi va og'ir-bosiq, mulohazali Bobur emas, balki taqdirga qarshi kurashuvchi, shaddod Boburni tasvirlaydi. U endi nafaqat vatanini, shu bilan birga, oilasini ham dushmani qo'lidan sog'-omon qaytarib olishi kerak edi. Bu ishda unga tajribali maslahatgo'yi Vazirxon yordam beradi. Bobur ayyorona harakatlar bilan birma-bir hududlarini qaytarib oladi va oilasini unga qaytarib berishlariga dushmanlarini majbur qiladi. Bunda u boshqalardan yordam kutmaydi, faqat o'z askarlari bilan dushman hududiga qisqa-qisqa hujumlar uyushtirib, ularning tinkasini quritadi. Keyinroq nikohdan siyosiy maqsadda foydalanib, ittifoqchilar topishga harakat qiladi. Biroq bu vaqt yana bir xavf paydo bo'lgan edi. Shayboniyxon Samarqandga kelib, barcha temuriyzodalarni yo'q qilishga urinayotgandi. Shu sababli Bobur o'zi tashabbus ko'rsatadi va ukasini sulh tuzib, birgalikda Samarqandni egallashga chaqiradi. Bunda u bironing majburlashi bilan emas, balki mustaqil tarzda qaror qabul qiladi va uning oqibatlariga ham tayyor turadi. Samarqanddan va opasidan ayrilganidan so'ng, ruhi cho'kib ketadi, dunyoda u boradigan joy yo'qdek tuyuladi. Biroq qarorgohida bo'ri bilan bo'lgan voqea sabab o'zida yangi kuch topadi. Bir kuni qarorgohga bo'ri kelib, toychoqni olib ketishga harakat qiladi, lekin buni uddalolmaydi. Ertasi kuni yana kelib, qo'yga hujum

qiladi. Bu urinish ham o'xshamaydi. Oxirgi kuni tovuqxonaga hujum qilib, tovuqlardan birini olib ketadi. Voqeani eshitgan Bobur maqsadiga erishish yo'lini o'zgartirishi, faqat Samarqand va Farg'onaga emas, balki boshqa hududlarga e'tibor qaratishi lozimligini tushunadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida nomlari tilga olingan ikki yozuvchi Zahiriddin Muhammad Bobur hayotini yoritishda rad etib bo'lmaydigan darajada hissalarini qo'shganlar. Ushbu romanlar boburiylar tarixini badiiy jihatdan yoritishda muhim ahamiyatga ega jahon durdonalaridir. Ushbu tadqiqot davomida mashhur fransuz nazariyotchisi Gerard Genette tomonidan ilmiy izohlangan "transmotivatsiya" hodisasi hamda uning "Jahongashta qirol" va "Shimoldan kelgan fotihlar" romanlarida qo'llanilishi atroflicha o'rganildi, ilmiy tushuntirishlar berildi hamda asarlardan misollar keltirildi. Tadqiqot xulosalari quyidagilardan iborat:

1. "Jahongashta qirol" romani Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsini shoir, san'atparvar hukmdor, katta bir oilaga javobgar bo'lgan oila boshlig'i sifatida uning ichki dunyosini ochib bergan bo'lsa, "Shimoldan kelgan fotihlar" esa uning buyuk sarkarda, qo'rqmas jangchi, hayotning issiq-sovug'iga dosh bera olgan, buyuk maqsadlarni ko'zlagan hukmdor kabi sifatlarini tasvirlaydi.
2. Transmotivatsiya hodisasi "demotivatsiya" hamda "remotivatsiya" hodisalarining natijasida sodir bo'ladi va asl matndagi motivni yangi asarga o'zgacha maqsad bilan olib o'tishni nazarda tutadi.
3. Ushbu asarlarda yettita transmotivatsion hodisalar aniqlandi va adabiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil davomida faqatgina bitta asarda o'zgarishga uchragan motivlar ham aniqlandi, biroq har ikki asarda uchraydigan transmotivatsion hodisalar asos qilib olingani sababli ushbu motivlar tahlilga tortilmadi. Jumladan, "Shimoldan kelgan fotihlar" romanidagi Shayboniyxonning temuriylarga dushmanligi motivi "Jahongashta qirol" romanida e'tibor markaziga olinmagan, biroq Aleks Rutserford o'z asarida unga atroflicha to'xtalgan.

Garchi Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sulton kabi o'zbek yozuvchilari tomonidan boburiylar tarixini yoritib beruvchi bir necha tarixiy-badiiy asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ular boburiylar tarixini dunyoga yoyish uchun yetarli emas. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu yozuvchilarning o'zbek tilidagi asarlari turli tillarga tarjima qilingan bo'lsa ham, ular dunyo kitobxonining boburiylar tarixiga bo'lgan qiziqishlarini to'lig'icha qondira

olmaydi. Chunki har bir davr kitobxonini ushbu tarixning yangicha talqinini kutadi. Bunday vaziyatda turli millat vakillari tomonidan o'z ona tillarida yaratilgan boburiylar tarixiga bag'ishlangan asarlar yordamga keladi. Shuningdek, ushbu asarlar dunyo xalqlarining boburiylar tarixiga bo'lgan o'zgacha qarashlarni ham aks ettiradi. Jumladan, F.A.Stilning "Jahongashta qirol" romani XX asr Britaniya elitasining boburiylar haqidagi tushunchasini ifodalasa, Aleks Rutserfordning "Shimoldan kelgan fotihlar" romani XXI asr ingliz kitobxonlarining umumiy dunyoqarashini o'zida mujassam etgan. Ushbu asarlarning yaqin kelajakda o'zbek tiliga tarjima qilinishi o'zbek adabiyoti uchun muhim hodisa bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. В. Раҳмонов ва К. Муллахўжаева табдили. — Тошкент: Ўзбекистон, 2023. — 464 б.

Genette G. *Palimpsest. Literature in the Second Degree*. Translated by Channa Newman & Claude Doubinski. — USA: University of Nebraska Press, 1997. — 508 p.

Гулбаданбегим. Хумоюннома. — Тошкент: Маънавият, 1998. — 104 б.

Ҳайдар, М.М. Тарихи Рашидий. — Тошкент: Ўзбекистон, 2011. — 704 б.

Rutherford, A. *Empire of the Moghul: Raiders from the North*. — New York: St. Martin's Press, 2009. — 363 b.

Сотимов, Ф. Бобурийзодалар. — Тошкент: Маънавият, 2003. — 71 б.

Steel, F.A. *King-errant*. — Great Britain: Tonbridge Printers. 1928. — 364 b.

Томашевский, Б. Теория литературы: Поэтика. — Ленинград: Н. Бухарина. 1925. — 232 с.

Wellek, R., Warren, A. *Theory of Literature*. — New York: Harcourt, Brace and Company. 1949. 424 p.

References

Babur, Z. M. (2023). *Boburnoma* (V. Rahmonov & K. Mullakhodjayeva, Eds.; modern Uzbek adaptation). Uzbekistan.

Genette, G. (1997). *Palimpsests: Literature in the second degree* (C. Newman & C. Doubinski, Trans.). University of Nebraska Press.

- Gulbadan Begim. (1998). *Humoyunnama*. Ma'naviyat.
- Haydar, M. (2011). *History of Rashidi*. Uzbekistan.
- Rutherford, A. (2009). *Empire of the Moghul: Raiders from the North*. St. Martin's Press.
- Sotimov, G. (2003). *The Baburids*. Ma'naviyat.
- Steel, F. A. (1928). *King-errant*. Tonbridge Printers.
- Tomashevskii, B. (1925). *Teoriya literatury: Poetika* [Theory of literature: Poetics]. N. Bukharin.
- Wellek, R., & Warren, A. (1949). *Theory of literature*. Harcourt, Brace and Company.